

**O'ZBEKISTONDA SOLIQ IMTIYOZLARI
MA'MURIYATCHILIGINING AMALDAGI TAHLILI**

Rajapov O'ktam Maxmaraimovich

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi Magistranti

Annotatsiya. Maqolada soliq nazoratining nazariy asoslari bo'yicha iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Soliq tekshiruvlari turlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va sababchi omillar tahlil qilingan hamda xulosa-takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, soliq ma'muriyatchiligi, soliq imtiyozlari, soliq tekshiruvlari

**АКТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ
НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Магистрант Банковского дела и финансов

Академии Республика Узбекистан

Ражапов Ўқтам Махмараимович

Аннотация: В статье рассматриваются исследования экономистов по теоретическим основам налогового контроля. Проведены исследования видов налоговых проверок, проанализированы соответствующие факторы и сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова: налог, налоговый контроль, налоговые проверки, налоговый мониторинг, камеральная налоговая проверка, выездная налоговая проверка, налоговая проверка.

**ACTUAL ANALYSIS OF THE ADMINISTRATION OF
TAX BENEFITS IN UZBEKISTAN**

Republic of Uzbekistan

Master's student of the Academy of Banking and Finance

Rajapov O'ktam Maxmaraimovich

Abstract. The article examines the researches of economists on the theoretical foundations of tax control. Researches on the types of tax audits were carried out, relevant factors were analyzed and conclusions and proposals were formulated.

Key words: tax, tax control, tax inspections, tax monitoring, camera tax inspection, mobile tax inspection, tax audit.

Kirish. Soliq ma'muriyatchiligi soliq sohasidagi davlat boshqaruvining shakli bo'lib, davlat soliq tizimining iqtisodiy xavfsizligini oshirishga bevosita yordam beradi. Soliq ma'muriyatchiligi davlat xizmatlarini boshqarish mexanizmining asosiy elementlaridan biridir.

"Soliq ma'muriyatchiligi keng ma'noda soliq munosabatlarini boshqarish tizimini anglatadi. Tor ma'noda soliq ma'muriyatchiligi soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq nazorati tushuniladi"¹.

Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» ma'qullandi.

Qarorda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilar belgilangan:

1. soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajasini qisqartirish;
2. xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq xizmatlarini rivojlantirish;
3. soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy qilish va soliq hisobini takomillashtirish;
4. davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish;
5. davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirish.

Adabiyotlar tahlili. Soliq ma'muriyatchiliga oid me'yoriy hujjatlar va tadqiqot ishlarida turli mazmunda ta'riflar berilgan hamda fikrlar keltirilgan.

Xususan, L.I.Goncharenkoning qayd etishicha, soliq ma'muriyatchiligi tashkiliy nuqtai nazardan, bu soliq munosabatlarini boshqarish tizimining elementidir³. I.A.Mayburovni yozishicha, soliq ma'muriyatchiligi – bu Rossiya Federal Soliq (FNS) xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga - soliqlar, yig'imlar va badallarni to'lovchilarga nisbatan aniq vakolatlarga ega bo'lgan soliq munosabatlarini boshqarish bilan bog'liq jarayon⁴. A.A.Abakulova va M.M.Shadurskayalarning fikricha, "Soliq ma'muriyatchiligi kengroq tushuncha bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga

¹ Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: [10.18334/ecsec.5.2.114626](https://doi.org/10.18334/ecsec.5.2.114626).

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 yil 10 iyuldagagi "Солик маъмуриятичилигини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4389-сон карори.

³ Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / 2-е изд., перераб. и доп. М.: Издательство Юрайт, 2019. 524 с.

⁴ Майбуров, И.А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Экономика» и «Менеджмент», специальностям «Экономическая безопасность», «Таможенное дело» / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбурова. – 7-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. – 503 с.

oladi: budget tizimiga soliq tushumlarini nazorat qilish, rejalashtirish va prognozlash, soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq nazorati doirasida amalga oshiriladigan mexanizmlar nuqtai nazaridan soliq mexanizmi tartibga solishdir”⁵. V.A.Krasnitskiy “Soliq ma’muriyatichiligi” tushunchasini ikki tomonidan ohib bergan. Birinchidan, bu boshqaruv organlari tizimi (qonun chiqaruvchi va ma’muriy soliq organlari). Ularning vazifalariga keyingi rejalashtirish davri uchun soliq konseptsiyasini o’tkazishni protsessual qo’llab-quvvatlash kiradi: ko’rib chiqish va muhokama qilish, qonun hujjatlarini tasdiqlash. Bundan tashqari, ular soliq budgeti ijrosi bo‘yicha hisobotlarni tuzishlari, ularni har tomonlama tahlil qilishlari kerak. Ikkinchidan, bu soliq harakatlari va aniq soliq texnikasini tartibga soluvchi, shuningdek, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi normalar va qoidalar majmuidir”⁶. N.Z.Zotikov ilmiy ishlarida soliq ma’muriyatichiliga ta’rif berish bilan birgalikda, uning predmeti va obyektiga ham aniqlik kiritgan. Soliq ma’muriyatichiligi – bu davlatda soliq munosabatlarini boshqarish tizimi bo‘lib, soliq organlarining faoliyati asosida ishlaydi. Soliq organlari tomonidan soliq qonunchiliga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat so‘zining tor ma’nosi soliq ma’muriyatichiligin anglatadi. “Soliq ma’muriyatichiligin predmeti - davlat soliq siyosati ta’sirida subyektlar (soliq organlari, soliq to’lovchilar) tomonidan boshqaruvning huquqiy usullari yordamida amalga oshiriladigan soliq munosabatlari. Soliq ma’muriyatichiligin obyekti – soliq organlarining faoliyati va soliqlar va yig‘imlarning davlat tomonidan belgilangan tizimi hisoblanadi”⁷. Soliq ma’muriyatichiligi tushunchasiga J.J.O’rmonov ham ta’rif bergan: “Soliq ma’muriyatichili-soliqlar va soliq obyektlarini hisobga olish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqqa oid huquqbazarlik uchun javobgarlikni belgilash, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va soliq munosabatlari ishtirokchilarining majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha davlat fiskal organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir”⁸. Soliq ma’muriyatichiligin tarkibiy qismi bo‘lib soliq imtiyozlari ma’muriyatichiligidir. Soliq ma’muriyatichiligin asosiy usullari soliq prognozi, rejalashtirish, soliq nazorati, soliq imtiyozi va boshqalar. Bu borada B.A.Fedosimovning ilmiy ishlarida soliq ma’muriyatichiligin soliq imtiyozi segmenti o‘z ichiga olishligi qayd etilgan⁹. B.A.Fedosimovning fikricha, soliq ma’muriyatichiligi deganda vakolatli davlat

⁵ Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022.

⁶ В.А.Красницкий Налоговое администрирование. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovanie>. 25.02.2023.

⁷ Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022; (1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>.

⁸ Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Дисс. Автореферати.2018.

⁹ Федосимов, Б. А. Ф33 Правовой режим налоговых льгот по законодательству Российской Федерации: монография / Б. А. Федосимов. – Чебоксары: ИД «Среда», 2019. – 152 с.

organlari va ularning mansabdor shaxslarining samarali soliq siyosatini amalgaloshirish, shu jumladan, budget daromadlarini ko‘paytirish bilan birga byudjet xarajatlarini minimallashtirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni aniqlash va joriy etish bo‘yicha faoliyatni tushunilishi kerak.

Imtiyozli segmentda soliq ma’muriyatichiliginin maqsadi soliq tushumlarini ta’minlash, soliq to‘lovchilarning alohida toifalari, soliq solish jarayonlari va obyektlari to‘g‘ri hisobga olinishi, soliq deklaratsiyasi va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish, soliq imtiyozlarini berishning mohiyati va tartibini tushuntirishdan iborat. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, soliq ma’muriyatichiliginin asosiy masalalaridan biri bu – soliq to‘lovchilarga soliq imtiyozlarini berishning mohiyati va tartibini tushuntirishdir.

Soliq ma’muriyatichiliginin soliq imtiyozi bilan bog‘liqligining yaqqol namoyon soliq ma’muriyatichiliginin rag‘batlantiruvchi maqsadidir. M.Yu.Lev, A.I.Bolonin va Yu.G.Leshenkolar soliq ma’muriyatichiliginin rag‘batlantirish maqsadini quyidagicha izohlaydi: So‘nggi yillarda “rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish”ga katta e’tibor berilmoqda. U biznes daromadlari uchun imtiyozlar berish va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun mukofot va jarimalarni belgilashga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Imtiyozli rejimning maqsadi investitsiya faoliyatining zarur yo‘nalishda zarur oqimini rag‘batlantirishdan iborat. Rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish doirasida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish uchun bir qancha turdagi imtiyozlar taqdim etiladi¹⁰.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, Soliq ma’muriyatichiliği bu soliqlar to‘lovchilarni hisobga olishdan boshlanib, to‘ularni tugatishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oluvchi soliq munosabatlari tizimi deb xulosa qilamiz. Soliq imtiyozlari ma’muriyatichiliği esa soliq ma’muriyatichiliginin bir qismi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida soliq ma’muriyatichiliği va uning tarkibiy qismi bo‘lgan soliq imtiyozlari ma’muriyatichiliginin nazariy masalalari hamda muammolarini keltirib o‘tdik. Endi mamlakatimizda soliq imtiyozlari ma’muriyatichiliginin haqiqiy ahvoli qanday ekanligini tahliliy ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz va tegishli xulosalar qilamiz. Buning uchun berilgan soliq imtiyozlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha oxirgi besh yillik ma’lumotlarni tahlil qilamiz.

1-jadvalda 2019-2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tashkilotlarning hududlar kesimida tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, ko‘rish mumkinki, 2019-yilda jami imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 68113 tani tashkil etgan bo‘lsa, berilgan imtiyozlar summasi 29 136 mlrd.so‘mni tashkil etgan. 2020-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 93871 ta bo‘lsa, berilgan imtiyozlar summasi 31 065,6 mlrd.so‘mni, 2021-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 57981 ta

¹⁰ Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: 10.18334/эсес.5.2.114626.

bo'lsa, berilgan imtiyozlar summasi 43 479,3 mlrd.so'mni, 2022-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 130654 ta bo'lsa, berilgan imtiyozlar summasi 72 963,7 mlrd.so'mni va nihoyat 2023-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 142159 tani va berilgan imtiyozlar summasi 69 777,9 mlrd.so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan o'zgarish imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 74 046 taga ortib, deyarli bir yarim barobarga ortgan, berilgan imtiyozlar summasi 40 641,9 mlrd.so'mga ortib, deyarli uch barobarga oshib borganligini ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda soliq imtiyozlari berish darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ularning iqtisodiyotga ta'siri qanchalik samaradorligini tahlil qilishga yana bir zarurat vujudga kelmoqda.

1-jadval

2019-2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tashkilotlarning hududlar kesimida tahlii¹¹, mlrd.so'm

№	Xudud	Jami imtiyozdan foydalangan tashkilotlar									
		2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami		68 113	29 136,0	93871	31 065,6	57981	43 479,3	130654	72 963,7	142 159	69 777,9
1	Andijon viloyati	4 813	3 846,5	6 199	391,2	4 350	380,1	7 660	1 689,3	8261	881,3
2	Buxoro viloyati	5 083	805,7	6 328	645,3	4 885	727,4	9 519	1 162,6	8805	961,2
3	Jizzax viloyati	4 420	354,6	3 008	172,3	1 952	170,7	5 147	634,9	5337	396,9
4	Oashqadaryo viloyati	5 274	993,3	7 449	688,1	4 332	906,1	10 804	898,4	11027	657,7
5	Navoiy viloyati	2 876	437,6	4 763	286,2	2 769	192,8	5 579	527,1	5283	447,3
6	Namangan viloyati	3 945	601,5	5 094	453,0	3 517	509,5	7 304	1 440,7	7488	922,8
7	Samarqand viloyati	4 703	1 058,7	6 769	488,3	3 590	745,8	9 755	1 956,8	10048	1 245,1
8	Surxondaryo viloyati	3 464	355,4	5 016	393,2	2 723	555,3	6 434	717,3	8395	543,6
9	Sirdaryo viloyati	1 746	396,1	2 197	223,9	1 451	198,1	3 769	655,7	4264	377,6
10	Toshkent shahri	13 413	10 567,2	20501	13 159,1	11237	4 443,6	25272	10 624,2	24284	7 548,7
11	Toshkent viloyati	4 754	3 070,5	7 076	2 325,8	3 902	766,1	11 605	2 901,0	10395	1 648,3
12	Farg'onha viloyati	5 050	885,6	7 670	445,2	4 795	598,4	10 499	1 978,9	10737	1 425,0
13	Xorazm viloyati	3 819	456,1	5 453	612,3	3 951	448,2	9 220	879,0	8481	677,7
14	Qoraqolpog'iston Respublikasi	4 580	292,5	6 164	465,9	3 864	330,5	7 383	548,8	17834	569,4
15	Yirik soliq to'lovchilar	173	5 014,7	184	10 315,8	663	32 506,6	704	46 348,7	1520	51 475,2

2-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2023-yil davomida deyarli barcha tarmoqlar soliq turlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha 2019-yilda 5 304 ta holatda 10 928,8 mlrd. so'm, 2023-yilda 10269 ta holatda 24 433,9 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalangan bo'lib, 2023-yilda umumiyligi soliq imtiyozlari summasining 35,0 foiziga to'g'ri kelmoqda hamda etakchilikni egallagan tarmoq hisoblanadi.

Ikkinchi yirik soliq imtiyozidan foydalangan soha moliyaviy va sug'urta xizmatlari bo'lib, 2019-yil 338 ta holatda 6 055,2 mlrd.so'm, 2023-yilda 683 ta holatda 14 953,4 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalangan bo'lib, 2023-yilda umumiyligi soliq imtiyozlari summasining 21,4 foiziga to'g'ri kelmoqda. 2019-2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tarmoqlar bo'yicha jami 492486 ta holat bo'lib, 246 422,6 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalananligan.

Endi yuqoridagilarga asoslanib, tahlil qiladigan bo‘lsak, soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo‘naltirish iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirishning samarali usuli bo‘lishi mumkin. Soliq imtiyozlari korxonalarini yangi asbob-uskunalar va texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun rag‘batlantirishi mumkin, bu esa samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo‘naltirish orqali korxonalarini o‘z faoliyatini kengaytirishga va ishlab chiqarishni ko‘paytirishga undash mumkin, bu esa bandlik va iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va soliq imtiyozi qo‘llanishining asosiy sabablaridan biri hamdir.

Lekin soliq imtiyozlari aniq iqtisodiy foyda keltiradigan ishlab chiqarish faoliyatiga yo‘naltirilishini ta’minalash muhim. Juda keng yoki yomon ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari mo‘ljallangan ta’sirga ega bo‘lmasligi va isrof bo‘lish xavfi mavjud. Shu sababli, bu siyosatni amalga oshirishdan oldin soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo‘naltirishning mumkin bo‘lgan xarajatlari va afzalliklarini diqqat bilan ko‘rib chiqish lozim.

Moliyaviy xizmatlarga soliq imtiyozlarini ajratish investitsiyalarni rag‘batlantirish va moliya sektoridagi o‘sishni rag‘batlantirish uchun kerak. Moliyaviy xizmatlar uchun soliq imtiyozlarini taklif qilish yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga investitsiyalarni rag‘batlantirishdan potentsial foyda keltiradi va shu bilan sanoatda yuqori samaradorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

Soliq imtiyozlarini sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasidagi sa'y-harakatlarga yo‘naltirish muhim ijtimoiy va jamoat tovarlariga investitsiyalarni rag‘batlantirish strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday soliq imtiyozlar xususiy sektorni hukumat tomonidan an‘anaviy tarzda taqdim etiladigan sohalarga jalb etishni rag‘batlantirishi va sifatli sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan foydalanishga yordam berishi mumkin. Sog‘liqni saqlash va ta’lim faoliyati uchun soliq imtiyozlarini taqdim etishning bir qancha mumkin bo‘lgan afzalliklari mavjud. Jumladan, soliq imtiyozlar sog‘liqni saqlashning yangi texnologiyalari, tibbiy tadqiqotlar va ta’lim dasturlariga sarmoya kiritishni rag‘batlantirishiga olib keladi, bu esa sog‘liqni saqlash natijalarini yaxshilashga va jamiyat uchun yaxshi ta’lim natijalariga xizmat qilishi mumkin hamda kam ta’minalangan hududlarda yashovchilar uchun sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

2-jadval

2019-2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tarmoqlar bo'yicha tahlil¹², mlrd. so'mda

T.r.	Soha nomi	Jami 5 yilda foydalanan soliq imtiyozlari		2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil	
		xolatlar soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
	Jami	492 486	246 422,6	68 113	29 136,0	93 871	31 065,6	57 981	43 479,3	130 690	72 963,7	141 831	69 777,9
1	Ishlab chiqarish faoliyati	37 572	90 692,4	5 304	10 928,8	7 309	11 652,5	4 515	16 308,9	10 176	27 368,3	10269	24 433,9
2	Moliyaviy va sug'urta xizmatlari	2 424	51 664,4	338	6 055,2	466	6 456,2	288	9 036,0	649	15 163,6	683	14 953,4
3	Ulug'ji va chakana savdo	153 795	34 668,8	22 942	4 164,9	31 618	4 440,8	19 530	6 215,3	44 020	10 430,0	35685	9 417,9
4	Tashish va saqlash faoliyati	16 475	18 187,0	2 192	2 138,8	3 021	2 280,5	1 866	3 191,8	4 206	5 356,2	5190	5 219,6
5	Oishloq xo'jaligi	118 862	10 166,9	15 268	1 320,4	21 043	1 407,9	12 997	1 970,5	29 296	3 306,6	40258	2 161,5
6	Oqirilish sohasidagi faoliyat	12 247	6 608,7	1 646	750,0	2 268	799,6	1 401	1 119,2	3 158	1 878,1	3774	2 061,8
7	Boshqa sohalar	151 109	34 434,6	20 422	3 777,9	28 145	4 028,1	17 385	5 637,8	39 185	9 460,9	45972	11 529,8

Shu o'rinda tahlillar asosida ta'kidlab o'tish joizki, soliq imtiyozlari ma'muriyatçiliginin takomillashtirish maqsadida byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish kerak deb hisoblaymiz. Chunki QQS imtiyozlarini olib tashlash orqali hukumat ilmiy-tadqiqot institutlarini faqat soliq imtiyozlaridan foydalananish uchun ilmiy loyihalarni amalga oshirish o'rniga, haqiqatda innovatsion va tijoratlashtirish uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan loyihalarga e'tibor qaratishga undashi mumkin. Bu byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalananishga olib kelishi, pirovardida soliq to'lovchilar uchun investitsiyalardan ko'proq daromad keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, QQS imtiyozlarini olib tashlash ma'muriy xarajatlarni kamaytirilishi va soliq tizimini soddalashtirilishiga olib keladi. Budget mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning amaldagi tizimi soliq ma'muriyatçiligidan ortiqcha murakkablikni keltirib chiqarmoqda, natijada soliq to'lovchilar uchun ham, davlat uchun ham qo'shimcha ma'muriy xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu imtiyozlarni olib tashlash orqali soliq tizimini soddalashtirish ushbu xarajatlarni kamaytirishi va soliq to'lovchilar uchun soliqqa rioya qilishni osonlashtirishi mumkin.

3-jadvalda 2019-2023-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari bo'yicha tahlil keltirilgan bo'lib, 2019-yilda soliqlar bo'yicha jami 68 112 ta tashkilotga 29136,0 mlrd. so'm, 2020-yilda 93871 ta tashkilotga 31 065,6 mlrd. so'm, 2021-yilda 109363 ta tashkilotga 43 479,3 mlrd. so'm, 2022-yilda 195044 ta tashkilotga 72939,2 mlrd. so'm va nihoyat, 2023-yilda 211926 ta tashkilotga 69 777,9 mlrd. so'm soliq imtiyozlari qo'llanilganini ko'rish mumkin.

Alovida soliq turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2019-yilda QQS bo'yicha berilgan imtiyozlar summasi 11 380 ta tashkilotga nisbatan 23 073,8 mlrd. so'mni tashkil etib, eng katta imtiyoz berilgan soliq turiga aylantirilganligini ko'rish mumkin. 2023-yilda bu summa ushbu soliq turi bo'yicha 25 415 ta tashkilotga nisbatan 58 525,1 mlrd. so'mni tashkil etib yana eng katta soliq imtiyoziga ega bo'lib turganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi soliq imtiyozlarining katta summasi yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda solig'iغا to'g'ri kelishini guvohi bo'lish mumkin. 2019-yilda foyda solig'i 763 ta tashkilotga nisbatan 2 785,4 mlrd. so'm, 2023-yilda esa 21 407 ta tashkilotga nisbatan 5 021,7 mlrd. so'mni tashkil etayotganligini ko'rish mumkin. 2018-2022-yillar davomida soliq imtiyozlarining o'sishi bo'yicha tahliliy natijaviylikka e'tiborni qaratadigan bo'lsak, unda uning ta'siri mamlakatga, soliq imtiyozlari turiga, iqtisodiy va siyosiy kontekstga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, soliq imtiyozlarining ko'payishi bir qator potentsial oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, soliq imtiyozlarini ko'paytirish korxonalar tomonidan muayyan xatti-harakatlar yoki investitsiyalarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini taklif qilish yoki yangi xodimlarni yollash korxonalarining ushbu turdag'i investitsiyalar bilan shug'ullanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

3-jadval

2019-2023-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari bo'yicha tahlil¹³, mlrd. so'mda

№	Soliq turlari	2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil	
		soni	summasi								
	Jami	68 113	29 136,0	93 871	31 065,6	109 363	43 479,3	195 044	72 939,2	211 926	69 777,9
1	QQS	11 380	23 073,8	7 031	24 643,3	15 508	36 766,3	28 214	64 107,9	25 415	58 525,1
2	Foyda solig'i	763	2 785,4	3 335	2 930,0	2 709	2 219,5	25 015	4 641,3	21 407	5 021,7
3	Ert solig'i	6 736	880,1	4 531	1 313,2	11 743	2 575,9	6 204	931,8	15 453	1 697,6
4	Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq	33 866	789,0	44 093	917,9	56 165	1 073,8	41 580	1 028,3	40 328	1 024,8
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	31	469,3	673	443,7	1 376	39,1	685	12,3	1 432	28,6
6	Itimoiy soliq	3 993	340,9	6 230	346,5	11 247	386,3	52 616	1 187,4	81 692	2 002,3
7	Mol-mulk solig'i	382	583,2	4 813	274,0	2 195	306,1	7 809	933,0	12 827	1 399,6
8	Aylanmadan olinadigan soliq	10 962	214,3	23 165	196,9	8 420	112,3	32 921	97,2	13 372	78,2

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarining ko'payishi korxonalar uchun umumiyl soliq yukini kamaytirishga yordam beradi. Soliq to'lovchilarga kredit summasini soliq majburiyatidan chegirib tashlashga ruxsat berish orqali soliq imtiyozlari korxonalar to'lashi kerak bo'lgan soliqlar miqdorini samarali ravishda kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan, soliq imtiyozlarining ko'payishi davlat daromadlari va byudjetga

ta'sir qilishi mumkin. Agar soliq imtiyozlari juda keng tarqalgan bo'lsa, ular hukumat yig'adigan daromad miqdorini kamaytirishi mumkin, bu esa muhim davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Biz quyida keltirilgan 4-jadvalda 2019-2023-yillar davomida ayrim soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlarini tahlil qilib chiqqanmiz.

4-jadvaldan ko'rish mumkinki, "UZAUTO MOTORS" AJ 2019-yilda 3 330,29 mlrd.so'm, 2020-yilda 7,82 mlrd.so'm, 2021-yilda 1,12 mlrd.so'm, 2022-yilda 785,86 mlrd.so'm va 2023-yilda 824,5 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalangan bo'lsa, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi" AJ 2019-yilda 7,35 mlrd.so'm, 2020-yilda 1,90 mlrd.so'm, 2021-yilda 1,46 mlrd.so'm, 2022-yilda 0,37 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalananib va 2023-yilda kelib soliq imtiyozlaridan foydalanimagan, "UZ-KOR GAS CHEMICAL" MCHJ QK 2019-yilda 1 037,5 mlrd.so'm, 2020-yilda 1 178,88 mlrd.so'm, 2021-yilda 1 117,13 mlrd.so'm, 2022-yilda 1 249,42 mlrd.so'm va 2023-yilda 899,05 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rish mumkinki, barcha korxonalar yillar kesimida soliq imtiyozlaridan foydalananib kelishgan bo'lib, ularning summalari 2018-2022-yillar davomida turli xil o'zgarish dinamikasini namoyon qilmoqda. Har uchala korxona ham soliq imtiyozlaridan faol foydalangan, bu esa soliq imtiyozlaridan foydalanish shakllari o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi, ba'zi yillarda boshqalardan ko'ra ko'proq foydalanilgan. Ushbu tebranishlarga biznes sharoitidagi o'zgarishlar, hukumat siyosati va investitsiya strategiyalari kabi omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Soliq imtiyozlaridan foydalanishdagi o'zgarishlar, shuningdek, ushbu korxonalar o'rtasida turli xil xavf profillarini aks ettirishi mumkin. Ko'proq molivaviy yoki bozor o'zgaruvchanligiga duch kelgan korxonalar xavfni kamaytirish strategiyasi sifatida soliq imtiyozlaridan foydalanishga moyil bo'lishadi. Buni yuqoridagi korxonalardan "UZAUTO MOTORS" AJ faoliyatida ham kuzatish mumkin, chunki ushbu korxonada 2019-yilda foydalangan soliq imtiyozlarining summasi yuqori bo'lib, 2020-2021-yillarda pasayganini ko'rish mumkin. Ammo soliq imtiyozlaridan foydalanish 2022-yilda yana o'sganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan soliq imtiyozlarining eng katta foydalanilgan soliq imtiyozi summasi QQSga to'g'ri kelmoqda, buning asosiy sababi eksport bilan shug'ullanganligidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 260-moddasi 1-bandida "O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar uchun nol darajali stavka bo'yicha soliq solish" tartibi amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, shu sababli ham ushbu soliq turi bo'yicha foydalanilgan soliq summasi katta ulushga ega.

2019-2023-yillarda soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlar tahlili¹⁴, mldr.so'mda

№	Korxonalar nomi	Foydalanilgan jami imtivozlar summasi				
		2019	2020	2021	2022	2023
1	"UZAUTO MOTORS" AJ	3 330 288,83	7 820,70	1 118,27	785 864,37	824 553,11
2	"OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	900 073,67	1 412 461,46	1 917 492,43	3 447 530,65	2 777 263,43
3	"O'ZTRANSGAZ" AJ	152 776,52	528,04	158 163,03	248 489,61	2 431,75
4	"CHIRCHIQ GIDROELEKTRSTANSIYALAR KASKADI" UK	5 596,29	5,69	344,01	5 838,96	15 202,14
5	"UZ-KOR GAS CHEMICAL" MCHJ QK	1 037 501,21	1 178 881,04	1 117 134,21	1 249 423,24	899 051,62
6	"QIZILQUMSEMENT" AJ	22 338,15	3 055,71	26 343,31	20 597,53	24 128,99
7	"BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI" MCHJ	79 778,54	4 966,30	4 336,29	23 821,40	28 416,85
8	"SAMARQAND XALQARO AEROPORTI" MCHJ	29 750,10	21 812,57	16 894,91	12 605,14	8 834,45
9	TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI AJ	7 348,77	1 895,33	1 464,38	370,72	0,00
10	O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ	341 918,72	418 734,76	820 154,03	926 134,14	1 005 956,00

Eksport bilan bog'liq soliq imtiyozlaridan foydalanish xalqaro savdo, valyuta tushumlari va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali ijobjiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, soliq to'lashdan bo'yin tov lash yoki noto'g'ri foydalanishga olib kelmasdan, belgilangan maqsadlarga erishish uchun ushbu siyosatlarni kuzatib borish juda muhimdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, eksport uchun QQS bilan bog'liq soliq imtiyozlaridan foydalanish xalqaro savdo va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatiga mos keladigan strategik qarordir. Bunday imtiyozlardan foydalanish eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish orqali ham korxonalarga, ham kengroq iqtisodiyotga sezilarli foyda keltirishi mumkin. Shunga qaramay, siyosatni samarali amalga oshirish va muvofiqlik monitoringi orqali eksportni rag'batlantirish va soliq tushumlarining yaxlitligini ta'minlash o'rtaida muvozanatni saqlash juda muhimdir.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, soliq imtiyozlari iqtisodiyot va jamiyat uchun ham ijobjiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan:

Iqtisodiy o'sish. Bunda soliq imtiyozlari korxonalarga soliq yukini kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, bu esa investitsiyalar, bandlik va iste'molni oshirishi mumkin. Bu iqtisodiy ishlab chiqarishning ko'payishiga, mahsuldarlikning oshishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Fiskal ta'sir. Soliq imtiyozlari davlat daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa ular boshqa daromad manbalari yoki xarajatlarni qisqartirish bilan

qoplanmagan bo'lsa. Bu byudjet taqchilligi va davlat qarzining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa uzoq muddatda iqtisodiyot va jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Samaradorlik. Soliq imtiyozlari soliqlarni yig‘ish va ularga rioya qilish bo‘yicha ma’muriy xarajatlarni kamaytirish orqali soliq tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, soliq to‘lovchilarni soliq qonunchiligiga rioya qilishga undashi va soliq to‘lashdan bo‘yin tovplash holatlarini kamaytirishi mumkin.

Innovatsiyalar. Soliq imtiyozlari korxonalar uchun ushbu faoliyat xarajatlarini kamaytirish orqali innovatsiyalar va tadqiqot va ishlanmalarini rag'batlantirishi mumkin. Buning natijasida iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, soliq imtiyozlarining iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri ularni ishlab chiqish va amalga oshirishga, shuningdek, ular faoliyat yuritadigan kengroq iqtisodiy va ijtimoiy kontekstga bog'liq. Shuning uchun soliq imtiyozlarini amalga oshirishdan oldin ularning xarajatlari va afzalliklarini diqqat bilan baholash muhim hisoblanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022; (1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>.

8. Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари. Дисс. Автореферати.2018.

9. Федосимов, Б. А. Ф33 Правовой режим налоговых льгот по законодательству Российской Федерации: монография / Б. А. Федосимов. – Чебоксары: ИД «Среда», 2019. – 152 с.

10. Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: 10.18334/эcssec.5.2.114626.